



PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MAZMUNI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 1-24 gruh talabasi

G'ofurova Fayyoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik kompetentlikni shakllantirishda integratsiyalashgan ta'lim mazmunining ahamiyati yoritilgan. Fanlararo integratsiya orqali o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Pedagogik kompetentlik, integratsiyalashgan ta'lim, fanlararo aloqadorlik, ta'lim mazmuni, innovatsion yondashuv, refleksiv kompetentlik, kasbiy rivojlanish, zamonaviy ta'lim.

Abstract: This article highlights the importance of integrated education content in shaping pedagogical competence. The possibilities of enhancing a teacher's professional capacity and improving the quality of education through interdisciplinary integration are analysed.

Keywords: Pedagogical competence, integrated education, interdisciplinary correlation, education content, innovative approach, reflective competence, professional development, modern education.

Kirish: Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatli ta'lim tizimiga ega bo'lish bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim sifatini ta'minlash esa, avvalo, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, malakasi va kompetentligiga tayanadi. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida an'anaviy bilim berishga asoslangan ta'lim modeli o'z imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Endilikda o'qituvchidan faqat fan bilimlarini yetkazish emas, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, ijodkorlikka, jamoa



bilan ishlashga yo'naltira oladigan shaxs bo'lish talab etilmoqda. Shu sababli pedagogik kompetentlikni shakllantirish masalasi ta'lim tizimining markaziy muammolaridan biriga aylangan.

Asosiy qisim: Pedagogik kompetentlik – bu o'qituvchining kasbiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Pedagogik kompetentlik tushunchasi bugungi kunda ko'plab olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. N. Muslimov pedagogik kompetentlikni “o'qituvchining kasbiy faoliyatda uchraydigan muammolarni mustaqil, ijodiy va samarali hal qila olish qobiliyati” sifatida ta'riflaydi. Sh. Abdullaeva esa pedagogik kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba, qadriyat va kasbiy pozitsiyalarining uyg'unlashgan tizimi deb hisoblaydi. Bu ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, kompetentlik bu faqat bilim emas, balki bilimni real hayotda qo'llashga tayyorlik va layoqatdir.

Zamonaviy pedagogik kompetentlik tarkibiga metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy, psixologik va refleksiv komponentlar kiradi. Ushbu kompetensiyalarni samarali shakllantirish esa integratsiyalashgan ta'lim mazmuni orqali yanada puxta va tizimli amalga oshiriladi. Chunki integratsiya o'qituvchini bir fan doirasida emas, balki ko'p fanli, kompleks fikrlashga yo'naltiradi.

Ma'lumki, pedagogika fani yuksak aqliy salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, shunga ko'ra bugungi kunda davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan muhim me'yoriy hujjatlar – Ta'lim to'g'risidagi Qonun, 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturida ko'rsatib o'tilgan barkamol shaxsni shakllantirish yo'nalishlari, qonunyalari va tamoyillariga asoslangan holda keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keldi. Shu sababli pedagogika fani haqli ravishda davlat tomonidan fanning ustuvor sohalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jaraynda esa oliy ta'lim tashkilotlarida fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli



darajada ortadi. O'quvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko'nikmalari shakllandi. Shubilanbirqatorda, o'quvfanlariga oid bilim va qiziqishlarini rivojlantirishning muhim shartidir. Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minlagan holda o'qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Nazariy nuqtai nazardan, integratsiyalashgan ta'lim bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi. Birinchisi – fanlararo bog'liqlik tamoyili bo'lib, u o'quvchilarni bilimlarni alohida fanlardan emas, balki ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda yetkazishni ko'zda tutadi. Ikkinchi tamoyil – amaliy yo'naltirilganlik bo'lib, o'quvchilarga olgan bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qilishda qo'llash imkonini beradi. Uchinchi tamoyil – individual yondashuv bo'lib, har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim mazmuni turli fanlar, bilim sohalari, metodlar va texnologiyalarni yagona maqsad asosida birlashtirish jarayonidir. Integratsiya pedagogik hodisa sifatida turli bilimlar, usullar va faoliyat turlarining o'zaro kirib borishi, o'zaro bog'liqligi va sintezi jarayoni va natijasi sifatida tushuniladi. Bunday jarayon, albatta, turli modullar bo'yicha ta'lim mazmunidagi izchillikni, shuningdek, ta'limning umumiy maqsadlari bilan belgilanadigan o'qitish shakllari, usullari va vositalarini tanlashni nazarda tutadi. Integratsiya turli funktsiyalarni bajarishi mumkin: uslubiy, ishlab chiqish va texnologik. Shu bilan birga, uslubiy funktsiya evristik, dunyoqarash-aksiologik va instrumental komponentlar orqali ochiladi.



UNESCO ta'lim strategiyasida integratsiyalashgan yondashuv "o'quvchida hayotiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi asosiy vosita" sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuv orqali bilimlar parchalanib qolmaydi, balki yagona mantiqiy tizimga birlashadi. Natijada pedagog nafaqat o'z fanini, balki boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorlikda o'rgatishga o'rganadi.

Masalan, pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari fanlarini integratsiya qilish orqali o'qituvchi zamonaviy dars dizaynini yaratish, interaktiv metodlardan foydalanish va o'quvchini faol subyektga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchining metodik kompetentligi bilan birga, kommunikativ va ijodiy salohiyati ham rivojlanadi.

Integratsiyalashgan ta'lim mazmuni o'qituvchining kasbiy tafakkurini kengaytiradi. U fanlararo bog'liqlikni ko'ra boshlaydi, muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga o'rganadi. Bu esa pedagogning refleksiv kompetentligini kuchaytiradi. Chunki o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini ko'rish va ularni bartaraf etish imkoniga ega bo'ladi.

Hattie tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'qituvchining refleksiv faoliyati va fanlararo yondashuvi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini 30–40 foizga oshirishi isbotlangan. Demak, integratsiya nafaqat pedagog, balki o'quvchi rivoji uchun ham muhim omildir.

Integratsiyalashgan ta'lim sharoitida pedagog o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, muammoli va loyihaviy metodlar asosida tashkil etadi. Masalan, "Sog'lom turmush tarzi" mavzusi biologiya, jismoniy tarbiya va tarbiya fanlari integratsiyasi asosida o'tilsa, o'qituvchi o'quvchilar bilan loyiha ishlab chiqadi, bahs-munozara o'tkazadi va natijada ularning ijtimoiy hamda kommunikativ kompetensiyalari rivojlanadi.

Shuningdek, integratsiya pedagogni innovatsion faoliyatga undaydi. U yangi texnologiyalarni o'zlashtiradi, raqamli resurslardan foydalanadi, interaktiv platformalar orqali darsni tashkil etadi. Bu esa uning axborot-kommunikatsion kompetentligini mustahkamlaydi.



Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik kompetentlikni shakllantirish masalasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, inson kapitali rivoji va ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqdir. An'anaviy bilim berishga asoslangan ta'lim modeli bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti hamda mehnat bozoridagi raqobat sharoitida yetarli samara bermayapti. Shu sababli ta'lim jarayonini integratsiyalashgan, kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

Integratsiyalashgan ta'lim mazmuni pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Fanlararo aloqadorlikka tayangan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'qituvchining nafaqat fan bo'yicha bilimlarini, balki metodik mahoratini, kommunikativ madaniyatini, axborot-kommunikatsion savodxonligini, ijtimoiy faolligini va refleksiv tafakkurini ham kompleks tarzda rivojlantiradi. Bu esa pedagogni o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda tahlil qila oladigan, o'z ustida ishlaydigan, innovatsion g'oyalarga ochiq mutaxassis sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin, and Toxirova Xadicha. "O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA OILANING O'RNI." *Modern education and development* 26.4 (2025): 138-141.
2. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin, and Ergasheva Feruza Boboqulovna. "XALQ PEDAGOGIKASIDA KITOBXONLIK MADANIYATI." *Modern education and development* 26.4 (2025): 127-130.
3. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DUNYO TAMADDUNI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI." *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI* 17.01 (2025): 180-183.



4. QIZI, MAHLIYO ZIYODOVA MURODULLA, SEVINCH CHOREYIVA, and MILINOROV XUSNIDDIN XUSHMATOVICH. "TARBIYA METODLARI KLASSIFIKATSIYASI." *TADQIQOTLAR* 74.2 (2025): 246-251.
5. QIZI, MAHLIYO ZIYODOVA MURODULLA, SEVINCH CHOREYIVA, and MILINOROV XUSNIDDIN XUSHMATOVICH. "YOSHLAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOY-PEDAGOGIK INNOVATIKA." *TADQIQOTLAR* 74.2 (2025): 252-257.
6. Husniddin, Melinorov, Qodirova Musallam, and Eshbo'riyev Sardor. "G 'ARB MAMLAKATLARIDA ZAMONAVIY OILAVIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 81.2 (2025): 53-61.
7. Husniddin, Melinorov, Qodirova Musallam, and Eshbo'riyev Sardor. "YOSHLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 81.2 (2025): 70-79.
8. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "IQTIDORLI O 'QUVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI." *SHOKH LIBRARY* 1.10 (2025).
9. Maxmadiyoroova, Marjona, and Mohidil To'rayeva. "BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA ULARNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARINI AHAMIYATI." *Академические исследования в современной науке* 4.31 (2025): 84-88.
10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "ZAMONAVIY OILADA KOMMUNIKATSIYA MADANIYATI VA UNING TARBIYAGA TA'SIRI." *Shokh Articles Library* 1.2 (2025).
11. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.



12. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 305-312.
13. Abdullaeva Sh. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
14. Muslimov N.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
16. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi." – Toshkent, 2019.
18. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris, 2016
19. Ergashev I. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya. – Toshkent, 2022.
20. Rasulov A. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent, 2019.